QASHQADARYO VILOYATI
KOSON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180800, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi-104, Telefon 592-16-28, 592-16-16

2022 - yil 30 - sentabr 337-4-60-Q/22 Koson tuman hokimligi

Koson tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarda fuqarolar va transport vositalarining harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilari o`rnatish to`g`risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to`grisida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, “Yo’l harakati Qoydalari to’g’risida“gi Qonunining 7-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo`l harakati Qoidalari” talablariga asosan Koson tumani hududida yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash bo`yicha profilaktik-ogohlantirish va og`ir oqibatli yo`l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo`lgan keng ko`lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta`minlash
maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Koson tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o`rnatilishi lozim bo`lgan yo`l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo`l belgilarini o`rnatishga ruxsat berilsin.

2.Koson tuman Ichki ishlar bo`limi boshligi I.Qutlimurodov, tuman ichki ishlar bo`limi Yo`l harakati xavfsizligi bo`linmasi boshlig`i Sh.Xolmatov va tuman

Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi direktori A.Saidqulovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilarini o`rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Qaror “Koson” gazetasiga e`lon qilinsin hamda hokimlikning Kosont.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4.Qaror rasman e`lon qilingan kundan e`tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari B.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**